Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashining 2026-yil 23-apreldagi 01/49-3-son bayoniga
1-ilova

“TASDIQLAYMAN”
Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengash raisi
_____K. Sharipov
“___”_____2026-y.

KASBIY STANDART

Oliy ta’lim tashkiloti laboranti

Reyestr raqami:

0

QR kod

I. Umumiy ma’lumotlar

1. Kasbiy standartning qo‘llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart “Kimyo sohasida laborant tadqiqotchi”, “Fizika sohasida laborant tadqiqotchi”, “Texnik-laborant (umumiy yo‘nalishda)”, “Biologiya sohasida laborant tadqiqotchi”, “Qishloq xo‘jaligi sohasida laborant tadqiqotchi”, “Laborant (o‘rta malakali)”, kasblari bo‘yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo‘nalishlarida keng turda qo‘llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo‘llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan, o‘rganilgan va o‘zlashtirilgan ma’lumotlar;

davlat ta’lim standartlari – davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari – ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT) bo‘yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o‘z ichiga olgan faoliyat turi;

informal

ta’lim – aniq maqsadga yo‘naltirilgan yoki rejali, lekin institutsionallashtirilmagan (oiladagi, ish joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga oladigan) ta’lim;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida (turida) zarur bilim, mahorat, ko‘nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart sharoitlari, ishga bo‘lgan munosabatiga qo‘yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat. Kasbiy standart nomi IFUT ga muvofiq guruh (yoki kichik guruh) nomi yoki kasbiy faoliyat sohasi (turi) nomi yoki qamrab olingan kasblarga mutanosib nomdan kelib chiqib nomlanadi;

kompetensiya – shaxsning mehnat vazifani to‘liq, to‘g‘ri va sifatli bajarish uchun egallangan bilim, mahorat va amaliy tajribalarini turli sharoitlarda qo‘llay olish qobiliyati;

ko‘nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mahorat – biror masala (mantiqiy, hissiy, ijodiy va amaliy tafakkurni qo‘llash)ni hal etish va faoliyatni amalga oshirish maqsadida bilimlarini qo‘llash va kompetentligini namoyish etish qobiliyati;

malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

malaka berish – rasmiy ta’lim va o‘z-o‘zini o‘qitish orqali olingan bilim va ko‘nikmalarni baholash jarayoni. Ushbu baholash natijalariga ko‘ra sertifikat, diplom yoki malakani tasdiqlovchi boshqa hujjat (malaka darajasi) beriladi;

malaka darajasi – murakkablik, nostandart ish harakatlari, mas’uliyatlik parametrlari bo‘yicha farqlanadigan xodimlarning bilimlari, ko‘nikmalari, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiqlik darajasi;

Milliy Malaka Tizimi (MMT) – kasbiy malakalar bo‘yicha mehnat bozori talabi hamda ta’lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta’lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy Malakalar Ramkasi (MMR) – bu kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan barcha kompetensiyalarni tavsiflovchi malaka darajalari to‘plamidan iborat tuzilma;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta’lim tashkiloti – davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

noformal ta’lim – ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejali ta’lim bo‘lib, u shaxsning butun hayoti davomida ta’lim olishida rasmiy ta’limiga qo‘shimcha va (yoki) muqobildir;

pedagog – ta’lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

pedagogik faoliyat – ta’lim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

ta’lim – ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarini, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

ta’lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – talabalar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuviga yo‘naltirilgan faoliyat;

tarmoq malaka ramkasi – tarmoqda tan olinadigan malaka darajalari tizimlashtirilgan tavsifi;

o‘quv metodik majmua – darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovadan iborat majmua.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 29-sentabrdagi O‘RQ -637-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risida” 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2008-yil 7-avgustdagi 173-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi (ro‘yxat raqami 1844, 21-avgust, 2008-y.);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2000-yil 16-oktabrdagi 400-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2001-yil 4-oktabrdagi 400-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida” 2012-yil 6-iyuldagi 200-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Magistratura to‘g‘risida” 2015-yil 2-martdagi 36-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 24-avgustdagi 275-son qarori, O‘zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomi” 2019-yil 7-iyundagi 470-son qarori;

Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori O‘zMSt 641:2025, (MMK-2025).

3. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:
IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;
TMR – Tarmoq malaka ramkasi;
T/r – tartib raqami.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Oliy ta’lim tashkiloti laboranti	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Oliy ta’lim tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va ishlab chiqarish laboratoriyalarida tajriba, tahlil va tadqiqot ishlarini amalga oshirish va ta’lim tashkilotlari (ta’lim beruvchi tashkilotlar) tomonidan asosiy oliy ta’lim dasturlari uchun ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish	
3.	IFUT bo‘yicha seksiya, bo‘lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q Seksiyasi: Ta’lim 85 Ta’lim 85.4 Oliy ta’lim 85.40 Oliy ta’lim 85.40.0 Oliy ta’lim	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	O‘qitish va ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etish, fan bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat olib borish, talabalarning mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini baholash va doimiy oshirib borish, kasbiy etika, akademik halollik va me’yoriy hujjatlarga rioya qilish.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro‘yxati va malaka darajasi:	**Kasblar kodi va nomi:**	**TMR dagi malaka darajasi:**
		31111002 Kimyo sohasida laborant tadqiqotchi	7
		31112001 Fizika sohasida laborant tadqiqotchi	7
		31119004 Texnik-laborant (umumiy yo‘nalishda)	7
		31411001 Biologiya sohasida laborant tadqiqotchi	7
		31421011 Qishloq xo‘jaligi sohasida laborant tadqiqotchi	7
		31119002 Laborant (o‘rta malakali)	7

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	**kodi va nomi**	**Kodi**	**Nomi**	**Kodi**	**Nomi**
1	31111002 **Kimyo sohasida laborant tadqiqotchi**	A1.7	Xom ashyo, yarim mahsulot yoki tayyor mahsulotlardan namuna olish, namunalarning to‘g‘ri markalanishi va saqlanishini ta’minlash, tahlil uchun namunalarni maydalash, eritish, filtrlash, quritish	A1.01.7	Tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar va metodikalar asosida namuna olish, namuna olish joyi, vaqti va sharoitini belgilash
				A1.02.7	O‘rtacha (reprezentativ) namuna shakllantirish, namuna olishda gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, namuna olish jarayonini tegishli hujjatlarda qayd etish
				A1.03.7	Har bir namunaga identifikatsiya belgisi raqam, sana, partiya raqami berish, namuna yorliqlarini to‘g‘ri va aniq rasmiylashtirish
				A1.04.7	Namunalarning saqlash sharoitini harorat, namlik, yorug‘lik nazorat qilish, saqlash muddatlariga rioya etilishini ta’minlash, namunalarning buzilishi yoki aralashib ketishining oldini olish
		A2.7	Fizik-kimyoviy tahlillarni bajarish (zichlik, pH, namlik, yopishqoqlik va boshqalar), sifat va miqdoriy tahlillarni amalga oshirish, zamonaviy asbob-uskunalarda ishlash(masalan, xromatograf, spektrofotometr va boshqalar),	A2.01.7	Tasdiqlangan metodikalar asosida fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarni aniqlash, zichlik, pH, namlik, yopishqoqlik va boshqa parametrlarni o‘lchash
				A2.02.7	O‘lchov asboblarini ishga tayyorlash va tekshirish, o‘lchov natijalarini aniqlik bilan qayd etish, natijalarni me’yoriy hujjatlar bilan solishtirish va dastlabki xulosa berish
				A2.03.7	Sifat identifikatsion tahlillarni bajarish, miqdoriy (kvantitativ) tahlillarni titrlash, gravimetrik yoki instrumental usullarda o‘tkazish
				A2.04.7	Nazorat namunalaridan foydalanish, tahlil aniqligi va takrorlanuvchanligini ta’minlash, olingan natijalarni hisoblash va rasmiylashtirish

			reaktivlar va eritmalarni tayyorlash		
2	31112001 **Fizika sohasida laborant tadqiqotchi**	B1.7	Fizik kattaliklarni o‘lchash (harorat, bosim, kuchlanish, tok kuchi, yorug‘lik intensivligi va boshqalar), mexanika, optika, elektr va magnetizm, atom va yadro fizikasi bo‘yicha laboratoriya ishlarini bajarish	B1.01.7	Tasdiqlangan metodika va standartlar asosida fizik kattaliklarni aniqlash, harorat, bosim, tok kuchi, kuchlanish, yorug‘lik intensivligi va boshqa parametrlarni o‘lchash
				B1.02.7	O‘lchov asboblarini ishga tayyorlash, kalibrlash va sozlash, natijalarni aniq qayd etish va hisobotlarga kiritish, o‘lchovlarda xatolik va noaniqlikni kamaytirish choralarini ko‘rish
				B1.03.7	Tajribalarni laboratoriya xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda bajarish, mexanik tizimlar (harakat, kuch, tezlik) bo‘yicha tajribalarni o‘tkazish
				B1.04.7	Optika yorug‘likning akslantirilishi, yutilishi, interferensiya bo‘yicha amaliy ishlarni bajarish, elektr va magnit maydon bilan bog‘liq o‘lchovlarni amalga oshirish, atom va yadro fizikasi eksperimentlarini topshiriqqa muvofiq bajarish
		B2.7	Tajriba qurilmalarini yig‘ish va sozlash, o‘lchov asboblari ko‘rsatkichlarini aniqlik bilan qayd etish	B2.01.7	Laboratoriya tajribalariga mos qurilmalarni tanlash va yig‘ish, qurilmalarni ishlab chiqaruvchi yoki metodika ko‘rsatmalariga muvofiq sozlash
				B2.02.7	Tajriba sharoitlariga mos holda qurilmalarni joylashtirish va ulash, qurilmalarning xavfsiz ishlashini ta’minlash, tajriba davomida qurilmalarni nazorat qilish va sozlashni yangilash
				B2.03.7	Har bir o‘lchov natijasini aniq va tartibli qayd etish, o‘lchovlarni birlashtirish va laboratoriya jurnallariga kiritish
				B2.04.7	Elektron yoki mexanik ko‘rsatkichlarni standart birligida yozish, noaniqlik va xatoliklarni kamaytirish

					choralarini ko‘rish, olingan natijalarni tahlil qilish va zarurat bo‘lsa, ilmiy rahbarga taqdim etish

3	31119004 **Texnik-laborant (umumiy yo‘nalishda)**	B1.7	Namuna qabul qilish, ro‘yxatga olish va markalash, namunalarning saqlanish sharoitlarini ta’minlash, tahlil yoki tajriba uchun namunalarni tayyorlash,quritish, maydalash, eritish va boshqalar	B1.01.7	Laboratoriyaga kelgan xom ashyo, yarim mahsulot yoki tayyor mahsulotlarni qabul qilish, har bir namunani laboratoriya jurnali va elektron tizimga kiritish
				B1.02.7	Namunalarga identifikatsiya raqami, sana va boshqa zarur belgilarni berish,Namunani markalash va noto‘g‘ri aralashishning oldini olish
				B1.03.7	Namunalarning saqlanish harorati, namligi, yorug‘lik va boshqa sharoitlarini nazorat qilish, saqlash muddatlari va standartlariga rioya qilish
				B1.04.7	Namunalarning buzilishi yoki aralashib ketishini oldini olish, zarurat bo‘lsa, namuna sharoitini laboratoriya rahbari bilan muvofiqlashtirish
		B2.7	Tasdiqlangan metodikalar asosida oddiy va o‘rta murakkablikdagi tahlillarni o‘tkazish, reaktiv va eritmalarni tayyorlash, o‘lchov asboblaridan foydalanish va ko‘rsatkichlarni qayd etish, tajriba natijalarini laboratoriya jurnaliga kiritish	B2.01.7	Laboratoriya ishlarini tasdiqlangan standartlar va metodikalar asosida bajarish, oddiy va o‘rta murakkablikdagi kimyoviy, fizik yoki biologik tahlillarni amalga oshirish
				B2.02.7	Nazorat namunalaridan foydalanib tahlil natijalarini tekshirish, tahlil jarayonida xavfsizlik va gigiyena qoidalariga rioya qilish
				B2.03.7	Zarur reaktivlarni tanlash va ularning sifati va amal qilish muddatini tekshirish, belgilangan konsentratsiyada eritmalarni tayyorlash, reaktivlar va eritmalarni markalash va saqlash sharoitlariga rioya qilish
				B2.04.7	Laboratoriya ishlarida kerakli o‘lchovlarni bajarish, ko‘rsatkichlarni aniq va tartibli qayd etish, noaniqlik

					va xatoliklarni aniqlash va kamaytirish choralarini ko‘rish

4	31411001 **Biologiya sohasida laborant tadqiqotchi**	B1.7	O‘simlik, hayvon yoki mikrobiologik, namunalardan namunalar olish, biomateriallarni (qon, to‘qima, suv, tuproq) qabul qilish va ro‘yxatga olish, namunalarning to‘g‘ri markalanishi va saqlanishini ta’minlash, mikroskopik yoki biokimyoviy tahlil uchun preparatlar tayyorlash	B1.01.7	Tasdiqlangan metodika va standartlarga muvofiq biologik namuna olish, olingan namunalarning sifat va to‘g‘ri vakilligi (reprezentativlik)ni ta’minlash
				B1.02.7	Namuna olish jarayonida gigiyena va laboratoriya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, namuna olish vaqtini, joyini va sharoitlarini qayd etish
				B1.03.7	Laboratoriyaga kelgan biomateriallarni qabul qilish va identifikatsiya qilish, har bir namunani laboratoriya jurnali va elektron tizimga kiritish
				B1.04.7	Har bir biomaterialga identifikatsiya raqami, sana va boshqa zarur belgilar berish, namunalarning saqlanish sharoitlarini nazorat qilish harorat, namlik, yorug‘lik, namunalarning buzilishi yoki aralashib ketishini oldini olish
		B2.7	Mikroskopik tekshiruvlarni bajarish, biologik va biokimyoviy tahlillarni amalga oshirish, ozuqa muhitlarini tayyorlash va sterilizatsiya qilish, oddiy mikrobiologik ekmalarni o‘tkazish	B2.01.7	Biologik namunalarni mikroskopda tekshirish va kuzatish, mikroskopik obyektlarning tuzilishi, o‘lchamlari va xususiyatlarini aniqlash
				B2.02.7	Tekshiruv natijalarini laboratoriya jurnaliga aniq qayd etish, mikroskop uskunalarini to‘g‘ri ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish
				B2.03.7	Biologik materiallarda kimyoviy tarkib va biokimyoviy parametrlarni aniqlash, sifat va miqdoriy tahlillarni laboratoriya metodikalari bo‘yicha bajarish
				B2.04.7	Nazorat namunalaridan foydalanib tahlil aniqligini tekshirish, tahlil natijalarini qayd etish va rasmiylashtirish

5	31421011 **Qishloq xo‘jaligi sohasida laborant tadqiqotchi**	B1.7	Tuproq, suv, o‘simlik va mahsulot namunalari olish namunalarning to‘g‘ri markalanishi va saqlanishini ta’minlash, laboratoriya tahliliga tayyorlash (quritish, maydalash, elash, eritma tayyorlash)	B1.01.7	Tasdiqlangan metodika va standartlar asosida tuproq, suv, o‘simlik va mahsulotlardan namuna olish, namuna olish jarayonida namunalar vakilligi (reprezentativlik)ni ta’minlash
				B1.02.7	Namuna olish vaqtini, joyini va sharoitlarini laboratoriya hujjatlarida qayd etish, gigiyena va laboratoriya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish
				B1.03.7	Har bir namunaga identifikatsiya raqami, sana va boshqa zarur belgilar berish, namunalarning saqlanish sharoitlarini nazorat qilish harorat, namlik, yorug‘lik
				B1.04.7	Namunalarning buzilishi yoki aralashib ketishini oldini olish, saqlash muddatlariga va standartlarga qat’iy rioya qilish
		B2.7	Tuproq tarkibini aniqlash (pH, kumush miqdori, azot, fosfor, kaliy), o‘simlik namunalarida oziqlanish elementlarini aniqlash, suv sifatini tekshirish (sho‘rlanish darajasi, minerallashuv) urug‘larning unuvchanligi va sifat ko‘rsatkichlarini baholash	B2.01.7	Tuproq namunalari ustida pH, kumush miqdori, azot, fosfor va kaliy darajasini aniqlash, olingan natijalarni laboratoriya jurnali va elektron ma’lumotlar bazasiga kiritish
				B2.02.7	O‘simlik namunalarini tayyorlash va oziqlanish elementlarini azot, fosfor, kaliy va boshqa mikroelementlar tahlil qilish,Natijalarni standart shakl va elektron formatda qayd etish
				B2.03.7	Suv namunalarida sho‘rlanish darajasi, minerallashuv va boshqa fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarni aniqlash, olingan natijalarni laboratoriya jurnali va hisobotlarida rasmiylashtirish
				B2.04.7	Urug‘larni standart metodika bo‘yicha ekish, unuvchanlik darajasi va sifat ko‘rsatkichlarini tekshirish, natijalarni aniq yozib borish va hisobotlarda rasmiylashtirish

6	31119002 **Laborant (o‘rta malakali)**	B1.7	Laboratoriya jihozlarini ishga tayyorlash, o‘lchov vositalarining to‘g‘ri ishlashini tekshirish, oddiy texnik xizmat ko‘rsatish va tozalash, aniqlangan nosozliklar haqida rahbarga xabar berish	B1.01.7	Tuproq namunasidan laboratoriya metodikalari asosida namunalar tayyorlash, pH, kumush miqdori, azot, fosfor, kaliy va boshqa elementlarni aniqlash
				B1.02.7	Natijalarni laboratoriya jurnali va elektron tizimga aniq kiritish, o’lchovlar va tahlil jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, olingan natijalarni me’yoriy talablarga muvofiq tahlil qilish
				B1.03.7	O‘simlik namunalaridan laboratoriya metodikasi bo‘yicha tayyorlash, makro va mikroelementlar azot, fosfor, kaliy, magniy, temir va boshqalar miqdorini aniqlash
				B1.04.7	Natijalarni laboratoriya jurnali va hisobotlarda qayd etish, suv sifatini me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan solishtirish
		B2.7	Laboratoriya jurnallarini yuritish, tahlil natijalarini rasmiylashtirish, hisobot va bayonnomalar tayyorlashda ishtirok etish, ma’lumotlarni belgilangan tartibda arxivlash	B2.01.7	Har bir tahlil va tajriba natijalarini laboratoriya jurnali va elektron tizimga muntazam yozib borish, qayd etilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va aniqligini ta’minlash
				B2.02.7	Laboratoriya jurnali va hujjatlarni belgilangan standartlarga muvofiq yuritish, o‘tkazilgan ishlar bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni rahbarga taqdim etish
				B2.03.7	Olingan natijalarni jadval, diagramma va grafiklar ko‘rinishida rasmiylashtirish, natijalarni standart laboratoriya shakllari va metodikalari bo‘yicha tasdiqlash
				B2.04.7	Barcha laboratoriya ishlarini jurnalda muntazam va aniq qayd etish, ishlatilgan materiallar, reagentlar, uskunalar va tajriba shartlarini yozib borish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Kimyo sohasida laborant tadqiqotchi	
Mashg‘ulot nomining kodi:	31111002	
TMR bo‘yicha malaka darajasi:	7	
Malakani baholashga qo‘yilgan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo‘yilgan talablar		
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo‘yilgan talablar		
Ta’lim darajasiga qo‘yilgan talablar:	magistratura; yuqori darajadagi qo‘shimcha ta’lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta’lim); mutaxassislik (spetsialitet); bakalavriat va amaliy tajriba;	
Informal ta’lim bilan bog‘liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo‘lgan nomlari:	**Oliy ta’lim tashkiloti laboranti**	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	**TMR bo‘yicha malaka darajasi:**	**Kasbning nomi:**
	-	-
	-	-

Mehnat funksiyalarining tavsifi

Kodi va nomi	**Mehnat vazifalari**	
A1.7-Ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta’lim yechimlarini joriy etishni metodik jihatdan ta’minlash	A1.01.7-Tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar va metodikalar asosida namuna olish, namuna olish joyi, vaqti va sharoitini belgilash	**O‘qitish natijalari**
		Mehnat harakatlari:
		1. Tasdiqlangan standartlar, metodik ko‘rsatmalar va me’yoriy hujjatlar asosida ishlarni rejalashtirish, namuna olish jarayonida amal qilinadigan barcha standartlarni va xavfsizlik talablarini aniqlash.
		2. Tuproq, o‘simlik, suv yoki boshqa materiallar uchun namuna olish punktlarini aniqlash.
		3. Joyning geografik koordinatalarini, sharoitini va namunaga ta’sir qiluvchi omillarni belgilash.

A2.7 Ta’lim jarayonini raqamlashtirish holatini tahlil qilish, samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish		4. Namuna olish vaqtini aniqlash, tahlil natijalarining to‘g‘riligini ta’minlash uchun namuna olish kunini, vaqti va davrini belgilash.
		5. Zarur hollarda mavsumiy yoki tajriba shartlariga mos ravishda namuna olish grafigini tuzish.
		6. Namuna saqlash va transport qilish sharoitlarini belgilash: konteynerlar, sovitish vositalari, zarur kimyoviy moddalar.
		7. Namuna kontaminatsiyasini oldini olish uchun gigiyena va xavfsizlik qoidalarini ta’minlash.
		8. Belgilangan joy, vaqt va sharoitga muvofiq namuna olish, namuna olinishi bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni laboratoriya jurnali yoki elektron tizimga kiritish.
		9. Namuna olish bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni protokol va bayonnoma shaklida rasmiylashtirish.
		10. Natijalarni rahbar laboratoriya xodimiga taqdim etish va keyingi tahlil jarayoni uchun tayyorlash.
		Ko‘nikmalar:
		Tuproq, suv va o‘simlik namunalarini standart metodika bo‘yicha tayyorlash va tahlil qilish, Laboratoriya uskunalari va asboblaridan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish
		Namuna olish, saqlash va transport qilish jarayonlarini to‘g‘ri amalga oshirish, kimyoviy reagentlar va materiallar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalarini bajarish
		Olingan natijalarni aniqlik bilan qayd etish va rasmiylashtirish, pH, kumush, azot, fosfor, kaliy va mikroelementlar miqdorini aniqlash
		Suv sifatini baholash sho‘rlanish darajasi, minerallashuv va urug‘larning unuvchanligini tekshirish
		tahlil natijalarini statistik va vizual grafik, diagramma shaklda tahlil qilish.
		Laboratoriya jurnallari, bayonnomalar va hisobotlarni standart shaklga muvofiq rasmiylashtirish
		Ma’lumotlarni elektron va qog‘oz shaklda tartibli saqlash, hujjatlarni arxivlash va kerak bo‘lganda tezkor qidirish
		Namuna olish joyi, vaqti va sharoitini belgilashni rejalashtirish, ijarayonini belgilangan me’yoriy hujjat va metodikaga muvofiq tashkil qilish
		Laboratoriya ishlarini samarali tartibga solish va ish yukini boshqarish, rahbar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish

		Laboratoriya natijalari va tahlillarni tushunarli tarzda hisobotlash, muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni hal qilish bo‘yicha maslahatlashish
		Bilimlar:
		Kimyo, biologiya va ekologiya asoslari, tuproq, o‘simlik va suv tahlili prinsiplari, laboratoriya uskunalari, asboblari va ularning ishlash prinsiplari
		Kimyoviy reagentlar, eritmalar va materiallar bilan xavfsiz ishlash qoidalari, namuna tayyorlash, saqlash va transport qilish shartlari
		Tahlil metodlari: pH o‘lchash, kumush miqdori aniqlash, azot, fosfor, kaliy va mikroelementlar tahlili
		Suv sifatini aniqlash sho‘rlanish, minerallashuv va urug‘larning unuvchanligi ko‘rsatkichlarini baholash
		Laboratoriya jurnallari, bayonnomalar va hisobotlarni rasmiylashtirish qoidalari, ma’lumotlarni elektron va qog‘oz shaklda tartibli saqlash va arxivlash tamoyillari
		Natijalarni statistik tahlil qilish va vizualizatsiya qilish asoslari diagramma, grafik, jadval.
		Me’yoriy hujjatlar va metodik ko‘rsatmalar asosida ish olib borish qoidalari, o‘simlik, tuproq va suv monitoringi standartlari
		Laboratoriyada gigiyena va xavfsizlik qoidalarini bilish, ish jarayonini rejalashtirish va tartibga solish prinsiplari
		Namuna olish joyi, vaqti va sharoitini belgilash tartibi, laboratoriya ishlarini samarali va me’yoriy asosda tashkil etish
	A1.02.7- O‘rtacha (reprezentativ) namuna shakllantirish, namuna olishda gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, namuna olish jarayonini tegishli hujjatlarda qayd etish	**Mehnat harakatlari:**
		1. Olingan birlamchi namunalardan reprezentativ namuna tayyorlash usullarini qo‘llash.
		2. Tuproq, suv yoki o‘simlik namunalarini tekshirish va aralashmalar orqali o‘rtacha qiymatni olish.
		3. Namunaning namunaviyligi va tahlil natijalarining ishonchliligini ta’minlash.
		4. Reagentlar, tajriba materiallari va laboratoriya uskunalari bilan xavfsiz ishlashni ta’minlash.
		5. Ish jarayonida shaxsiy himoya vositalarini qo‘lqop, maska ishlatish
		6. Namuna olish joyi, vaqti, sharoiti va ishlatilgan metodlarni tegishli hujjatlarda qayd etish.
		7. Laboratoriya jurnali, bayonnoma yoki elektron tizimga namuna olish bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni kiritish.
		8. Namuna olish jarayonida yuzaga kelgan istisno holatlar yoki ogohlantirishlarni hujjatlarda belgilash.

		9. Namunalarni belgilangan harorat va sharoitda transport qilish, har bir namuna uchun identifikatsiya yorlig‘ini tayyorlash va uni to‘g‘ri joylashtirish
		10. Namuna olishdan oldin va keyin asbob-uskunalarni kalibrlash va tekshirish, namunalarning sifatini monitoring qilish, zarar ko‘rgan yoki buzilgan namunalarni ajratish.
		11. Namuna bilan bog‘liq har qanday istisno holatlar, shikastlanish yoki noto‘g‘ri saqlash xatolarini belgilash.
		12. Favqulodda vaziyatlarda xavfsiz evakuatsiya va birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini qo‘llash.
		13. Kerak bo‘lsa, qo‘shimcha namunalardan aralashmalar hosil qilish, namunaning sifatini saqlash va kontaminatsiyani oldini olish uchun maxsus idishlardan foydalanish.
		14. Birlamchi namunalardan tekis va tasodifiy joylashgan namunalarni tanlash, namunaning hajmi, soni va joylashuvini me’yoriy ko‘rsatmalarga muvofiq aniqlash.
		Ko‘nikmalar:
		Tuproq, suv va o‘simlik namunalarini standart metodika bo‘yicha tayyorlash va reprezentativ, o‘rtacha namuna shakllantirish
		Laboratoriya asbob-uskunalari va o‘lchov qurilmalaridan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish
		Kimyoviy reagentlar va tajriba materiallari bilan xavfsiz ishlash, kontaminatsiyani oldini olish.
		Namuna olish jarayonida to‘g‘ri saqlash va transport qilish, namuna olish va tahlil natijalarini standart shaklda qayd etish
		Turli manbalardan olingan namunalarni birlashtirib o‘rtacha reprezentativ qiymatni aniqlash
		Sifat nazorati bo‘yicha xatolarni aniqlash va zarurat bo‘lsa qo‘shimcha namuna olish
		Namuna olish joyi, vaqti, sharoiti va ishlatilgan metodlarni tegishli hujjatlarda to‘g‘ri qayd etish
		Laboratoriya jurnallari, bayonnomalar va elektron tizimlarda ma’lumotlarni tartibli saqlash
		Ish jarayonida shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish va xavfsiz evakuatsiya qoidalarini qo‘llash
		Ish joyini toza va xavfsiz holatda saqlash, chiqindilarni belgilangan tartibda utilizatsiya qilish
		Namuna olish jarayonini belgilangan standartlar va metodikaga muvofiq rejalashtirish

		Ishlarni samarali va tartibli tashkil etish, vaqtni optimal taqsimlash
		Ko‘p manbalardan olingan namunalarni boshqarish va tahlil jarayoniga tayyorlash
		Namuna bilan bog‘liq istisno holatlarni va ogohlantirishlarni hujjatlarda belgilash
		Bilimlar:
		Analitik kimyo va biologiya asoslari, tuproqshunoslik, o‘simlikshunoslik va gidrokimyo asosiy tushunchalari
		O‘lchov birliklari, aniqlik, xatolik va natijalarning ishonchliligi tushunchalari
		Tuproq, suv va o‘simlik namunalari olish tartibi va prinsiplari, o‘rtacha (reprezentativ) namuna shakllantirish usullari
		Namuna hajmi, soni va joylashuvini aniqlash mezonlari, namuna saqlash, markirovkalash va transport qilish talablari
		Tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar, standartlar va metodik ko‘rsatmalar talablari
		Laboratoriya faoliyatiga oid ichki reglament va yo‘riqnomalar, hujjatlashtirish va hisobot yuritish qoidalari
		Laboratoriyada sanitariya-gigiyena talablari, kimyoviy, biologik va mexanik xavf omillari
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va birinchi yordam asoslari
		Sifat nazorati prinsiplari va ichki tekshiruv tartibi, asbob-uskunalarni kalibrlash va tekshirish talablari
		Ma’lumotlarni rasmiylashtirish, saqlash va arxivlash tartibi, elektron ma’lumotlar bazasi va laboratoriya jurnallarini yuritish qoidalari
		Mehnat harakatlari:
	A1.03.7- Har bir namunaga identifikatsiya belgisi raqam, sana, partiya raqami berish, Namuna yorliqlarini to‘g‘ri va aniq rasmiylashtirish	1. Har bir olingan namuna uchun yagona identifikatsiya raqamini shakllantirish.
		2. Identifikatsiya raqamiga sana, partiya (seriya) raqami va zarur hollarda obyekt kodi kiritish.
		3. Namuna olingan vaqt va joyga mos ravishda kodlash tizimidan foydalanish.
		4. Takrorlanishni oldini olish maqsadida identifikatsiya raqamlarini laboratoriya reyestri bilan solishtirish.
		5. Namuna olingan aniq sana va vaqtni qayd etish, partiya yoki seriya raqamini belgilangan tartib asosida kiritish.
		6. Agar namuna bir nechta joydan olingan bo‘lsa, har biriga alohida belgi berish.

		7. Namuna turiga mos, namlik va haroratga chidamli yorliqlardan foydalanish, yorliqni namuna idishiga mustahkam va to‘g‘ri joylashtirish.
		8. Berilgan identifikatsiya ma’lumotlarini laboratoriya jurnali yoki elektron tizimga kiritish.
		9. Yorliqdagi ma’lumotlar bilan hujjatlardagi ma’lumotlarning mosligini tekshirish.
		10. Noto‘g‘ri yoki shikastlangan yorliqlarni zudlik bilan almashtirish
		11. Identifikatsiya jarayonini ichki sifat nazorati talablariga muvofiq amalga oshirish.
		12. Maxfiy yoki muhim namunalarda qo‘shimcha belgilash tizimidan foydalanish.
		13. Takroriy va xatolik bilan berilgan raqamlarni aniqlash va bekor qilish tartibini yuritish.
		14. Qadoqlanish holati va yorliqning mavjudligini tekshirish, namuna qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirish.
		15. Harorat, namlik yoki kimyoviy ta’sirga chidamli materiallardan tayyorlangan yorliqlarni qo‘llash.
		16. Namuna idishi, qopqog‘i va hujjatlaridagi identifikatsiya ma’lumotlarining bir xilligini nazorat qilish.
		17. Namunaning harakatini qabul qilish, tahlilga berish, arxivlash yoki utilizatsiya bosqichma-bosqich hujjatlashtirish.
		18. Noto‘g‘ri markirovka yoki chalkashlik aniqlanganda tezkor choralar ko‘rish, jarayon uchun mas’ul shaxsni belgilash va javobgarlikni aniqlashtirish.
		Ko‘nikmalar:
		Har bir namuna uchun yagona va takrorlanmaydigan identifikatsiya raqamini shakllantirish
		Sana, partiya (seriya) raqami va obyekt turini kodlash tizimi asosida to‘g‘ri belgilash, namuna idishlariga yorliqlarni to‘g‘ri, mustahkam va xavfsiz joylashtirish
		Shtrix-kod yoki elektron markirovka tizimlaridan foydalanish
		Identifikatsiya ma’lumotlarini laboratoriya jurnali va elektron bazaga aniq kiritish
		Namuna qabul qilish, topshirish va saqlash jarayonlarini rasmiy qayd etish
		Har bir namuna uchun yagona va takrorlanmaydigan identifikatsiya raqamini shakllantirish
		Sana, partiya raqami va obyekt turini kodlash tizimi asosida to‘g‘ri belgilash, namuna idishlariga yorliqlarni to‘g‘ri, mustahkam va xavfsiz joylashtirish

		Identifikatsiya ma’lumotlarini laboratoriya jurnali va elektron bazaga aniq kiritish
		Yorliq va hujjatlardagi ma’lumotlarning mosligini tekshirish, namuna qabul qilish, topshirish va saqlash jarayonlarini rasmiy qayd etish
		Noto‘g‘ri markirovka yoki chalkashliklarni aniqlash va bartaraf etish, ikki martalik tekshiruv (double-check) tizimini qo‘llash
		Kodlash tizimini izchil yuritish va raqamlar ketma-ketligini nazorat qilish, Namunalarning saqlash joyini tizimli tashkil etish va tezkor topish imkonini yaratish
		Bilimlar:
		Laboratoriyada qo‘llaniladigan yagona identifikatsiya tizimi va uning tuzilishi, namuna kodi tarkibi raqam, sana, partiya/seriya raqami, obyekt turi
		Ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash prinsiplari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi
		Namuna bilan ishlashda gigiyena va texnika xavfsizligi talablari, noto‘g‘ri markirovkaning tahlil natijalariga ta’siri
		Ikki martalik tekshiruv tizimi va xatoliklarni aniqlash usullari, namunalarning saqlash sharoitlari va ularning sifatga ta’siri
		Sifat menejmenti tizimi talablari (laboratoriya ichki tartib-qoidalari), ichki nazorat va audit tartiblari
		Namuna olish va markirovka qilishga oid amaldagi standartlar va ichki reglamentlar
		Ma’lumotlarni to‘g‘ri va aniq qayd etish qoidalari, hujjatlarni saqlash va arxivlash me’yorlari
		Ma’lumotlarni soxtalashtirish yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirish oqibatlari, xizmat etikasi va ichki intizom qoidalari
		Laboratoriyada sifatni boshqarish tamoyillari, ichki audit va tekshiruv jarayonlari
		Namunalarning saqlash sharoitlari harorat, namlik, yorug‘lik ta’siri, transportirovka qoidalari va tashish vaqtida xavfsizlik talablari
		O‘lchash aniqligi va xatolik turlari, markirovka jarayonida aniqlik va izchillikni ta’minlash prinsiplari
		Shtrix-kod va QR-kod tizimlarining ishlash mexanizmi, elektron ma’lumotlarni himoyalash va zaxira nusxa (backup) yaratish tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Har bir namuna turi uchun belgilangan saqlash sharoitlarini aniqlash harorat, namlik, yorug‘lik darajasi.

	A1.04.7- Namunalarning saqlash sharoitini harorat, namlik, yorug‘lik nazorat qilish, saqlash muddatlariga rioya etilishini ta’minlash, namunalarning buzilishi yoki aralashib ketishining oldini olish	2. Muzlatkich, sovitkich yoki maxsus saqlash kameralarining harorat ko‘rsatkichlarini muntazam o‘lchash va qayd etish.
		3. Namlik va yorug‘lik darajasini nazorat qilish uchun tegishli o‘lchov vositalaridan foydalanish.
		4. Saqlash uskunalarining sozligini tekshirish va nosozlik aniqlansa, zudlik bilan mas’ul shaxsga xabar berish.
		5. Saqlash muddati o‘tgan namunalarni belgilangan tartibda utilizatsiya qilish yoki arxivga topshirish.
		6. Turli obyekt yoki partiyaga mansub namunalarning aralashib ketmasligi uchun ularni alohida joylashtirish.
		7. Namuna bilan ishlashda gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilish.
		8. Saqlash jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklarni qayd etish va bartaraf etish choralarini ko‘rish.
		9. Ichki sifat nazorati doirasida saqlash jarayonini davriy tekshiruvdan o‘tkazish.
		10. Idishlarning germetik yopilganligini muntazam tekshirish, namuna idishlarini mexanik shikastlanishdan himoya qilish.
		11. Harorat va namlik monitoringi natijalarini maxsus jurnal yoki elektron tizimga kiritish.
		12. “Birinchi kelgan-birinchi tahlil qilinadi” (FIFO) tamoyiliga amal qilish.
		13. Muzlatkich, sovitkich yoki maxsus saqlash kameralarining harorat ko‘rsatkichlarini muntazam o‘lchash va qayd etish.
		14. Saqlash uskunalarining sozligini tekshirish va nosozlik aniqlansa, zudlik bilan mas’ul shaxsga xabar berish.
		Ko‘nikmalar:
		Har bir namuna turi uchun belgilangan harorat, namlik va yorug‘lik talablarini amalda qo‘llash.
		Saqlash muhitini doimiy monitoring qilish va ko‘rsatkichlardagi og‘ishlarni aniqlash
		Harorat va namlik nazorat jadvallarini yuritish, Sovitish va saqlash uskunalaridan samarali foydalanish
		Namunalarning qabul qilingan sanasiga asoslanib saqlash muddatini hisoblash
		Saqlash muddati tugashiga yaqin namunalarni aniqlash va ustuvor tartibda ishlashga yo‘naltirish
		Muddati o‘tgan namunalarga nisbatan belgilangan tartibda choralar ko‘rish
		Namunalarning aralashib ketishini oldini olish uchun ularni tizimli joylashtirish

		Idishlarning germetik yopilganligini va yorliqlarning aniqligini tekshirish
		Mexanik shikastlanish va kontaminatsiya xavfini kamaytirish, turli partiya va obyekt namunalari o‘rtasida ajratish tamoyiliga amal qilish
		Saqlash jarayonidagi o‘zgarishlarni tezkor aniqlash, nomuvofiqliklarni qayd etish va tuzatish choralarini ko‘rish
		Namunalarning sifatini saqlab qolish uchun vaqtinchalik saqlash choralarini tashkil etish
		Bilimlar:
		Turli turdagi namunalarning tuproq, suv, o‘simlik va boshqalar saqlash talablari, harorat, namlik va yorug‘likning namuna sifatiga ta’siri
		Sovitish va saqlash uskunalarining ishlash prinsipi, Saqlash sharoitlaridagi og‘ishlarning tahlil natijalariga ta’siri
		Harorat va namlikni o‘lchash usullari, monitoring jurnallarini yuritish tartibi
		Me’yoriy ko‘rsatkichlar va ruxsat etilgan og‘ish chegaralari, ichki sifat nazorati tamoyillari
		Namunalarning saqlash joyini tashkil etish prinsiplari, muddati o‘tgan namunalarga nisbatan qo‘llaniladigan tartib
		Kontaminatsiya va aralashish xavfi, germetik qadoqlash talablari
		Mexanik shikastlanishning oldini olish usullari, gigiyena va texnika xavfsizligi qoidalari
		Saqlash sharoitlarini qayd etish tartibi, utilizatsiya va arxivlash jarayonlarini rasmiylashtirish qoidalari
		Elektron va qog‘oz shakldagi ma’lumotlarni saqlash talablari, nomuvofiqliklarni qayd etish va tuzatish tartibi
		Elektr ta’minoti uzilganda yoki sovitish tizimi ishdan chiqqanda harakat qilish tartibi
		Zaxira saqlash sharoitlarini tashkil etish prinsiplari, namunalarning buzilish xavfini kamaytirish choralarini bilish
		Turli turdagi namunalarning tuproq, suv, o‘simlik va boshqalar saqlash talablari
		Mehnat harakatlari:
	A2.01.7- Tasdiqlangan metodikalar asosida fizik-kimyoviy	1. O‘lchov va tahlil uskunalarini (pH-metr, densitometr, viskozimetr, o‘lchov silindri va boshqalar) ishga tayyorlash.
		2. Reagent va standart eritmalarni tayyorlash va belgilangan konsentratsiyaga keltirish.

	ko‘rsatkichlarni aniqlash, zichlik, pH, namlik, yopishqoqlik va boshqa parametrlarni o‘lchash	3. Uskunalarni kalibrlash va me’yoriy qiymatlar bilan solishtirish, ish joyini tozalash va shaxsiy himoya vositalarini tayyorlash.
		4. Ish joyini tozalash va dezinfeksiya qilish, kerakli asbob-uskunalar va reagentlarni tayyorlash
		5. Tekshiriladigan moddaning namunasini belgilang va kerakli miqdorda oling, namuna yuzasini tozalang va idishni tayyorlang
		6. Namuna homiladorligini agar kerak bo‘lsa aniqlang va standartlarga moslashtiring
		7. Har bir parametr bo‘yicha olingan natijalarni laboratoriya jurnaliga yozish, standartlarga solishtirib natijalarni tahlil qilish
		8. Kerak bo‘lsa, qo‘shimcha tekshiruvlar yoki takroriy o‘lchovlar o‘tkazish, asbob-uskunalarni tozalash va joyiga qo‘yish
		9. Laboratoriya ish joyini tartibga keltirish,Ish jarayonida hosil bo‘lgan chiqindilarni xavfsiz yo‘l bilan utilizatsiya qilish
		10. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish: lab ko‘ylagi, qo‘lqop, ko‘zoynak, respirator agar zaharli moddalar bilan ishlansa
		11. Namunaning to‘g‘ri miqdorini belgilang, namuna idishini tozalash va quritish
		12. Agar namuna suvli eritma bo‘lsa, aralashtirish yoki gomogenlashtirish
		13. Namuna identifikatsiya yorlig‘ini yopishtirish: nomi, sana, seriya raqami
		Ko‘nikmalar:
		Laboratoriya ish joyini tozalash va tartibga solish, asbob-uskunalarni to‘g‘ri joylashtirish va tayyorlash
		Shaxsiy himoya vositalarini to‘g‘ri kiyish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, metodika va ish rejasi bo‘yicha harakatlarni rejalashtirish
		Namunaning to‘g‘ri hajmini va turini tanlash, namunaning gomogenezligini ta’minlash aralashtirish, suyultirish
		Densimetr yoki pyemometrni kalibrlash, haroratga bog‘liq tuzatishlarni hisobga olish
		O‘lchov natijalarini aniq qayd etish va takrorlash, namunaning identifikatsiyasi va tegishli yo‘rliqlash
		pH-metrni kalibrlash va elektrodni to‘g‘ri ishlatish, barqaror o‘lchov natijasini kutish
		Natijalarni qayd qilish va analiz qilish, quritish qurilmasi yoki vakuum quritish usulidan foydalanish
		Namlikni hisoblash formulalarini qo‘llash, quritish jarayonida parametrlarni nazorat qilish harorat, vaqt

		Laboratoriya jurnalida natijalarni aniq yozish, standartlarga solishtirib tahlil qilish, grafik, jadval yoki diagramma yordamida vizual taqdimot qilish
		Bilimlar:
		Fizik-kimyoviy ko‘rsatkich tushunchasi va ularning moddalar xossalarini aniqlashdagi roli
		Laboratoriyada ishlash tartibi va xavfsizlik qoidalari, asbob-uskuna va o‘lchov vositalarining ishlash prinsiplari
		Temperaturaga bog‘liq zichlik o‘zgarishlari va tuzatishlar, suvli eritmalar va aralashmalarda zichlikni aniqlashning amaliy ahamiyati
		Zichlik tushunchasi va birligi (g/cm³ yoki kg/m³), Densimetr va pyemometr ishlash prinsipi
		pH tushunchasi, kislotalik va asoslilik, pH o‘lchash prinsipi va pH-metr ishlash tartibi
		Elektrodlarni kalibrlash va natijalarni tahlil qilish, namlik tushunchasi va ifodalanishi
		Namlikni aniqlash usullari: quritish, vakuum quritish, kimyoviy metodlar, namlikning moddalar xossalariga va saqlash muddatiga ta’siri
		Laboratoriya etikasi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, chiqindilarni xavfsiz utilizatsiya qilish
		Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish va ish vaqtini samarali boshqarish
		Viskozimetr va boshqa o‘lchash usullari, mahsulot sifati va ishlash jarayonidagi yopishqoqlik ahamiyati
		Mehnat harakatlari:
	A2.02.7- O‘lchov asboblarini ishga tayyorlash va tekshirish, o‘lchov natijalarini aniqlik	1. Laboratoriya ish joyini tozalash va tartibga keltirish, shaxsiy himoya vositalarini kiyish: lab ko‘ylagi, qo‘lqop, ko‘zoynak.
		2. Kerakli o‘lchov asboblarini tayyorlash: tarozi, pH-metr, viskozimetr, densimetr, termometr va boshqalar.
		3. Reagentlar, namunalar va standart eritmalarni tayyorlash va joylashtirish, ish rejasi va metodik ko‘rsatmalarni o‘rganish.
		4. Asboblarni kalibrlash tarozilarni nolga sozlash, pH-metrni tampon eritmalar bilan kalibrlash.
		5. Asboblarni vizual tekshirish shikastlanish, ifloslanish, elektrod holati.
		6. Asboblar ishlash holatini tekshirish va barqaror ko‘rsatkich olish, zarur hollarda asboblarni tozalash va qayta kalibrlash.
		7. Namuna tayyorlash va gomogenlashtirish, o‘lchovlarni standart sharoitlarda amalga oshirish.

	bilan qayd etish, natijalarni me’yoriy hujjatlar bilan solishtirish va dastlabki xulosa berish	8. Har bir parametr bo‘yicha natijalarni laboratoriya jurnaliga yozish, Natijalarni takroriy o‘lchovlar orqali aniqlikni oshirish.
		9. O‘lchovlarda yuzaga keladigan xatoliklarni belgilash va qayd etish.
		10. Standartlar va me’yoriy hujjatlarni ISO, GOST, milliy normativlar tayyorlash, o‘lchov natijalarini standart qiymatlar bilan solishtirish.
		11. Standartdan chetga chiqqan natijalarni qayd etish, kerak bo‘lsa, qo‘shimcha o‘lchovlar yoki tuzatishlar kiritish.
		7. Miqdoriy tahlilni laboratoriya metodikalari bo‘yicha bajarish masalan, konsentratsiya, aktivlik, kontsentratsiya foizi

		8. Sifat tahlili: namunaning kimyoviy komponentlari mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlash
		9. Olingan natijalarni tahlil qilish, xatolarni qayd etish va laboratoriya jurnaliga yozish
		10. Ishlatilgan idish, pipetka va asboblarni tozalash va dezinfeksiya qilish, qoldiq reagentlar va chiqindilarni xavfsiz tarzda yo‘q qilish
		11. Biologik material va namuna qoldiqlarini tegishli shartlarda saqlash, laboratoriya ish joyini tartibga keltirish va ishni yakunlash
		12. Ish joyini dezinfeksiya qilish va barcha asbob-uskunalarni ishlashga tayyorlash, laboratoriya jurnalini ochib, eksperiment nomi, sana va ishchi shaxslarni yozish
		13. Ishlab chiqiladigan namuna turi bo‘yicha xavfsizlik choralari: biologik xavfni baholash, allergen yoki toksik reagentlardan ehtiyot bo‘lish
		14. Reagent va eritmalarning amal qilish muddati va saqlash shartlarini tekshirish
		15. Ish davomida shaxsiy himoya vositalarini doimiy kiyish: qo‘lqop, laboratoriya ko‘ylagi, ko‘zoynak, reagentlar bilan ishlashda xavfsizlik protokolini qat’iy rioya qilish
		16. Eksperimentlarni takrorlash orqali natijalarning ishonchliligini oshirish, laboratoriya texnikasi va asbob-uskunalarni muntazam tekshirish va texnik xizmat ko‘rsatish
		17. Har bir parametr uchun **o**‘lchovlar va reaksiyalarni takrorlash-natijalarning ishonchliligini oshirish, o‘lchash asboblarini kalibrlash va sozlash masalan, spektrofotometrni standart eritma bilan tekshirish
		18. Reaksiyaning davomiyligi va haroratini qat’iy nazorat qilish, natijalarni raqamli va grafik shaklda qayd etish, kerak bo‘lsa diagramma yoki jadval hosil qilish.
		Ko‘nikmalar:
		Ish joyini tartibga keltirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, ishni boshlashdan oldin zarur asbob-uskunalar va reagentlarni tayyorlash
		Laboratoriya jurnalini yuritish, natijalarni tizimli yozish va qayd etish, eksperiment protokolini tushunish va unga qat’iy rioya qilish
		Biologik materialni belgilangan miqdorda olish va tayyorlash, namunaning sifatini tekshirish rang, konsistensiya, pH
		Steril ishlash va ifloslanishdan himoya qilish, standart va kontrol namunalari bilan ishlash
		Kimyoviy reaksiyalarni laboratoriya metodikalari bo‘yicha bajarish, spektrofotometr, kolorimetr, titrimetr va boshqa asboblarni to‘g‘ri ishlatish

		Reaksiyaning davomiyligi va sharoitlarini nazorat qilish, natijalarni aniq va tizimli qayd etish, grafik va jadval shaklida tasvirlash
		Biologik materialdagi komponentlarning mavjudligini aniqlash sifat tahlili, tarkibiy qismlarning miqdorini hisoblash miqdoriy tahlil
		Natijalarni standartlar bilan solishtirish va tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni qayd etish
		Biologik materiallarni sifatli va xavfsiz tayyorlash, kimyoviy va biokimyoviy tahlillarni ishonchli bajarish
		Natijalarni aniq qayd etish va tahlil qilish, asbob-uskunalarni to‘g‘ri ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘ladilar
		Bilimlar:
		Biologik materiallar: qon, siydik, to‘qima, hujayra suyuqliklari va boshqa namunalar tarkibida biologik va kimyoviy elementlar mavjud. Ularni tahlil qilish orqali organizmning sog‘lom yoki kasallik holati aniqlanadi
		Biokimyoviy parametrlar: fermentlar, proteinlar, glyukoza, lipidlar, vitaminlar va elektrolitlar organizm faoliyatini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardir
		Kimyoviy reaksiyalar: laboratoriyada amalga oshiriladigan reaksiyalar biologik komponentlarni aniqlash va o‘lchash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, enzimatik reaktsiyalar, titrimetrik yoki kolorimetrik usullar
		Namuna sifatini aniqlash: rang, konsistensiya, pH va boshqa parametrlar orqali namunaning tahlilga mosligi baholanadi
		Sterillik va ifloslanishdan himoya: biologik materialdagi mikroorganizmlar yoki boshqa komponentlar natijani buzishi mumkin
		Namuna tayyorlash metodikalari: homogenizatsiya, markazlashtirish, filtratsiya va konservantlar bilan ishlash
		Spektrofotometriya: biologik komponentlarning yorug‘likni yutish xususiyatiga asoslangan o‘lchov
		Enzimatik reaktsiyalar: fermentlar yordamida substratni mahsulotga aylantirish jarayoni orqali tarkibiy moddaning miqdori aniqlanadi
		Titrlash va kolorimetrik metodlar: reagent bilan reaksiyaga kirishish orqali kontsentratsiyani hisoblash imkonini beradi
		Sifat tahlili: namunadagi komponent mavjudligini aniqlash masalan, glukoza bor yoki yo‘qligini tekshirish
		Miqdoriy tahlil: biologik komponentlarning aniq konsentratsiyasini hisoblash
		Standart va kontrol namunalari: tahlil natijalarini solishtirish va ishonchliligini tekshirish uchun ishlatiladi
		Mikroskop, spektrofotometr, pH-meter va centrifuga kabi asboblar nazorat va kalibrlashni talab qiladi

		Texnik xizmat: asboblarni tozalash, kalibrlash va muntazam tekshirish uzoq muddat ishlashini ta’minlaydi
		Xavfsizlik qoidalari: shaxsiy himoya vositalari va chiqindilarni xavfsiz yo‘q qilish laboratoriya ishining ajralmas qismidir
		Natijalarni laboratoriya jurnaliga yozish, grafik va jadval shaklida tasvirlash, statistika va solishtirma tahlillar orqali xulosalar chiqarish
		Muammolarni aniqlash va takroriy tekshiruvlar orqali ishonchlilikni oshirish, biologik materiallarni to‘g‘ri tayyorlash va xavfsiz ishlash.
		Kimyoviy va biokimyoviy tahlillarni ishonchli bajarish, natijalarni sifat va miqdor jihatidan tahlil qilish
		Asbob-uskunalarni samarali ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish, eksperimentlarni ilmiy asosda baholash va xulosalar chiqarish
	B2.04.7- Nazorat namunalaridan foydalanib tahlil aniqligini tekshirish, Tahlil natijalarini qayd etish va rasmiylashtirish	**Mehnat harakatlari:**
		1. Ish joyini tartibga keltirish, dezinfeksiya qilish va barcha asbob-uskunalarni ishga tayyorlash, zarur reagentlar va eritmalarni tayyorlash, ularning amal qilish muddatini tekshirish
		2. Laboratoriya jurnalini ochish va eksperiment nomi, sana va ishchi shaxslarni qayd etish, shaxsiy himoya vositalarini kiyish: laboratoriya ko‘ylagi, qo‘lqop, ko‘zoynak
		3. Belgilangan standart nazorat namunalari va kontrol eritmalarni tayyorlash, namunalar va nazorat standartlarini identifikatsiya qilish etiketlash
		4. Nazorat namunalari bilan ishlashda steril va ifloslanishdan himoya qilish, zarur bo‘lsa, namunalarning harorat va saqlash shartlarini nazorat qilish
		5. Asosiy biologik yoki kimyoviy namuna bilan birgalikda nazorat namunasini tahlil qilish, standart metodika bo‘yicha kimyoviy yoki biokimyoviy reaktsiyalarni bajarish
		6. O‘lchash asboblarini spektrfotometr, kolorimetr, titrimetr va h.k.ishlatish, nazorat natijalarini asosiy natija bilan solishtirib, tahlil aniqligini tekshirish
		7. Agar aniqlik qoniqtirmasa, metodni takrorlash yoki asbobni tekshirish.
		8. Eksperiment natijalarini laboratoriya jurnaliga aniq yozish, nazorat va asosiy namuna natijalarini jadval yoki grafik shaklida tasvirlash.
		9. Olingan qiymatlarni standartlar bilan solishtirish va aniqlikni belgilash, har qanday xatolar, og‘ishlar va izohlarni jurnalga yozish.
		10. Laboratoriya jurnalida tahlil natijalarini rasmiylashtirish: sana, ishchi shaxs, tahlil turi, metod va natijalar, nazorat

		namunalar bilan solishtirish xulosasini yozish aniqlik, ishonchlilik darajasi
		11. Agar natijalar tahlil standartlariga mos kelmasa, xulosa va tavsiyalar berish, jurnalda imzo qo‘yish va tahlil natijalarini rasmiy tasdiqlash.
		12. Ishlatilgan asbob va idishlarni tozalash va dezinfeksiya qilish, qoldiq reagent va chiqindilarni xavfsiz tarzda yo‘q qilish, ish joyini tartibga keltirish va laboratoriya ishini yakunlash.
		Ko‘nikmalar:
		Ish joyini tartibga keltirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, zarur reagentlar, eritmalar va asboblarni tayyorlash
		Laboratoriya jurnalini to‘g‘ri yuritish va eksperiment ma’lumotlarini yozish, standart nazorat namunalari va kontrol eritmalarni tayyorlash va identifikatsiya qilish
		Nazorat namunalari yordamida tahlil aniqligini tekshirish, sterillik va ifloslanishdan himoya qilish
		Kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalarni metodika bo‘yicha bajarish, o‘lchash asboblaridan spektrfotometr, kolorimetr va h.k. to‘g‘ri foydalanish
		Nazorat natijalari bilan asosiy namuna natijalarini solishtirish, eksperiment natijalarini laboratoriya jurnaliga aniq va tizimli yozish
		Nazorat natijalari bilan solishtirish orqali aniqlikni belgilash, jadval, grafik yoki rasm shaklida natijalarni tasvirlash
		Tahlil xulosalari va tavsiyalarni rasmiylashtirish, jurnalni imzolash, shaxsiy himoya vositalarini doimiy kiyish va xavfsizlik protokoliga rioya qilish
		Ishlatilgan asbob va idishlarni tozalash, dezinfeksiya qilish, qoldiq reagent va chiqindilarni xavfsiz tarzda yo‘q qilish
		Tahlil natijalarining aniqligini nazorat qiladi, natijalarni tizimli qayd etadi, ish jarayonini xavfsiz va samarali amalga oshiradi
		Bilimlar:
		Nazorat namunasi-bu laboratoriyada tahlilning aniqligi va ishonchliligini tekshirish uchun ishlatiladigan standart namuna, nazorat namunasi bilan ishlash eksperimentni standartlashtirish va xatoliklarni aniqlash imkonini beradi
		Tahlil natijalarini aniqlashda nazorat namunasi yordamida: ishlatilayotgan metodikaning to‘g‘riligini tekshirish, asbob-uskunalarning to‘g‘ri ishlashini aniqlash, tahlil natijalarining reproduktivligini baholash mumkin
		Aniqlik (accuracy)-olingan natijaning haqiqiy qiymatga qanchalik yaqinligi, ishonchlilik (precision) -natijalar bir-biriga qanchalik mos kelishi
		Nazorat namunasi yordamida aniqlik va ishonchlilikni tekshirish laboratoriya natijalarining sifatini kafolatlaydi

		Laboratoriya natijalari rasmiy tarzda jurnal yoki protokolga yozilishi kerak: sana, ishchi shaxs, tahlil turi va ishlatilgan metod, nazorat namunasi va asosiy namuna natijalari, aniqlik, xatoliklar va xulosalar
		Rasmiylashtirish orqali natijalar boshqa mutaxassislar tomonidan tekshirilishi va qayta ishlanishi mumkin, nazorat namunalarini tayyorlash va ishlashda steril va xavfsiz muhitni saqlash
		Shaxsiy himoya vositalari laboratoriya kiyimi, qo‘lqop, ko‘zoynak bilan ishlash, asbob-uskunalarni to‘g‘ri ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish: kalibrlash, tozalash va dezinfeksiya
		Nazorat namunalarining vazifasi va ahamiyatini tushunadi, tahlil natijalarini aniqlik va ishonchlilik nuqtayi nazaridan baholay oladi
		Natijalarni tizimli va rasmiy tarzda qayd etadi, xavfsizlik va texnik xizmat qoidalariga rioya qiladi
	Mas’uliyat va mustaqillik:	Tahlil natijalarining aniqligi va ishonchliligi uchun javobgarlik, nazorat namunalari yordamida xatoliklarni aniqlash va tuzatish
		Eksperiment natijalarini laboratoriya jurnalida to‘liq va aniq qayd etish, shaxsiy himoya vositalarini kiyish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Biologik material va reagentlarni xavfsiz saqlash va yo‘q qilish, ishlatilgan asbob-uskunalarni tozalash va dezinfeksiya qilish
		Natijalarni o‘zgartirmasdan, to‘liq va rost yozish, eksperimentlarni boshqa mutaxassislar tekshirishi uchun tayyor holatda saqlash
		Standart laboratoriya protokollarini o‘qib, ularni to‘liq va aniq bajarish, nazorat namunalarini tanlash va ularni tahlil qilishni mustaqil amalga oshirish
		Olingan natijalarni standartlar bilan solishtirish va aniqlikni baholash, xatoliklar yuzaga kelganda, ularni aniqlash va o‘z-o‘zini tuzatish
		Eksperimentlarni ishonchli va xavfsiz bajaradi, natijalarni aniq va rasmiy tarzda qayd etadi, mustaqil va professionallik bilan qaror qabul qiladi
		Murakkab yoki noaniq vaziyatlarda laboratoriya metodikalarini moslashtira olish, ish jarayonida yuzaga keladigan kichik muammolarni mustaqil hal qilish
		Mas’uliyatsiz mustaqillik xavfli bo‘lishi mumkin xato natijalar, xavfsizlik buzilishi, mustaqilliksiz mas’uliyat samarali bo‘lmaydi har doim yordamga muhtoj bo‘lish
		laboratoriya xodimi yoki o‘quvchi har ikki jihatni uyg‘un rivojlantirishi zarur: tahlilni mustaqil bajarish, natijalarga

		mas’uliyat bilan yondashish, xavfsizlik va rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		Texnik vositalarga umumiy talablar: Biologiya laboratoriya asbob-uskunalari bilan ishlashni bilish (mikroskop, sentrifuga, termostat, inkubator, pH-metr va boshqalar). O‘lchov asboblarini sozlash, tekshirish va kalibrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish, biologik namunalarni to‘g‘ri yig‘ish, tayyorlash va saqlash, kompyuter texnikasi va ma’lumotlarni qayta ishlash dasturlari bilan ishlash, laboratoriya jihozlarini tozalash, saqlash va texnik holatini nazorat qilish, laboratoriya xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish. Biologik tajribalarni belgilangan metodika asosida bosqichma-bosqich o‘tkazish. Steril sharoitda ishlash (aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilish), biologik reaktivlar va ozuqa muhitlarini to‘g‘ri tayyorlash va qo‘llash, tajriba natijalarini aniq qayd etish, tahlil qilish va laboratoriya hisobotlarini tayyorlash, tadqiqot jarayonida aniqlik va takrorlanuvchanlikni ta’minlash, biologik chiqindilarni belgilangan tartibda yig‘ish va utilizatsiya qilish. Umumiy biologiya, mikrobiologiya yoki genetika asoslarini bilish, analitik fikrlash va ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmasi, jamoada ishlash va ilmiy rahbar ko‘rsatmalariga amal qilish, laboratoriya hujjatlarini to‘g‘ri yuritish.

Kasbning nomi:	**Qishloq xo‘jaligi sohasida laborant tadqiqotchi**
Mashg‘ulot nomining kodi:	
TMR bo‘yicha malaka darajasi:	*7*
Malakani baholashga qo‘yiladigan talablar:	*Tavsiya etiladi*
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo‘yilgan talablar:	Qishloq xo‘jaligi laboratoriyalarida yoki ilmiy tadqiqot markazlarida kamida 1–3 yil amaliy ish tajribasi, laboratoriya sharoitida tadqiqot olib borish va tajribalar o‘tkazish tajribasi. Tuproq, o‘simlik va boshqa qishloq xo‘jaligi namunalarini yig‘ish, tayyorlash va saqlash tajribasi, laboratoriya sharoitida kimyoviy yoki biologik tahlillarni o‘tkazish, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligini kuzatish va baholash, tajriba natijalarini qayd etish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash. Laboratoriya asbob-uskunalari va qishloq xo‘jaligi reaktivlari bilan ishlash tajribasi, kompyuterda ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash ko‘nikmasi, ilmiy guruh tarkibida ishlash va ilmiy rahbar topshiriqlarini bajarish tajribasi, laboratoriya xavfsizligi va ekologik talablarni amalda qo‘llash.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo‘yilgan talablar	Oliy ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash; Qishloq xo‘jaligi, agronomiya, agrobiologiya yoki tuproqshunoslik asoslarini bilish, laboratoriya tadqiqotlari va tajribalarini metodika asosida bajarish qobiliyati, tuproq, o‘simlik va boshqa biologik namunalar bilan ishlash ko‘nikmasi, o‘lchov va tahlil natijalarini to‘g‘ri qayd etish va tahlil qilish qobiliyati, laboratoriya jihozlari va reaktivlaridan to‘g‘ri foydalanish. muloqot madaniyati-rahbarlar, pedagog xodimlar va talabalar bilan professional muloqot olib borish; stressga chidamlilik -ziddiyatli va murakkab vaziyatlarda o‘zini tuta bilish; tashabbuskorlik-ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish; o‘zini rivojlantirishga intilish-kasbiy bilim va kompetensiyalarni muntazam oshirib borish; diqqat va aniqlik – tajribalarni bajarishda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik; mas’uliyatlilik – laboratoriya jihozlari va tajriba natijalariga ehtiyotkorlik bilan yondashish; analitik fikrlash – olingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish; jamoada ishlash qobiliyati – ilmiy guruh bilan hamkorlikda ishlash; tashabbuskorlik – yangi usullar va tadqiqot yo‘nalishlarini o‘rganishga intilish; kompyuterda ma’lumotlar bilan ishlash (jadval, hisobot tayyorlash)

	laboratoriya xavfsizligi va ekologik talablarga rioya qilish; ilmiy hujjatlar va hisobotlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish; laboratoriya xavfsizligi va ekologik talablarga rioya qilish; ilmiy hujjatlar va hisobotlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish; laboratoriya xavfsizligi va ekologik talablarga rioya qilish; ilmiy hujjatlar va hisobotlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish.	
Ta’lim darajasiga qo‘yilgan talablar:	magistratura; yuqori darajadagi qo‘shimcha ta’lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta’lim); mutaxassislik (spetsialitet); bakalavriat va amaliy tajriba;	
Informal ta’lim bilan bog‘liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo‘lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	**TMR bo‘yicha malaka darajasi:**	***Kasbning nomi:***

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	**Mehnat vazifalari**	
B1.7- Oliy ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonining amaldagi qonunchilik, davlat ta’lim standartlari, normativ-huquqiy hujjatlar va ichki tartib-qoidalarga muvofiqligini nazorat qilish	B1.01.7- Tasdiqlangan metodika va standartlar asosida tuproq, suv, o‘simlik va mahsulotlardan namuna olish, Namuna olish jarayonida namunalar vakilligi (representativlik)ni ta’minlash	**O‘qitish natijalari**
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyini va ishchi joyni tartibga keltirish, zarur asbob-uskunalarni tayyorlash shprits, qoplar, idishlar, etiketkalar, marker va h.k.
		2. Ishlashdan oldin shaxsiy himoya vositalarini kiyish: qo’lqop, laboratoriya ko’ylagi, ko’zoynak, namuna olinadigan hududni aniqlash va belgilash
		3. Standart metodika va protokollarni o’rganish: har bir turdagi material tuproq, suv, o’simlik, mahsulot uchun belgilangan namunalar olish tartibini bilish
		4. Tuproq maydonini vakillikni ta’minlash uchun bloklar yoki shox shaklida namunalar olish, har bir blokdan bir nechta kichik namuna olish va ularni aralashtirish
		5. Umumiy namunaning etalon qismi uchun aralash tuproqni tayyorlash, namunani quruq, toza idishga joylashtirish va identifikatsiya qilish
		6. Suv manbasini ko’l, daryo, suv havzasi belgilash va vakillikni ta’minlash uchun bir nechta nuqtadan namuna olish, namuna olishda qotib qolmaslik va ifloslanishdan saqlanish

		7. Har bir nuqtadan olingan suvni aralashtirish yoki belgilangan hajmga moslashtirish, idishlarga solib, identifikatsiya va yorliq qo'yish
		8. Har bir maydon yoki partiyadan vakillikni ta'minlash uchun bir nechta o'simlik yoki mahsulot namunalarini tanlash
		9. Shakl, hajm va holat bo'yicha turli namunalardan aralash vakillik namunasi tayyorlash, namuna idishlarini toza va yopiq holda saqlash, yorliq va identifikatsiya qilish
		10. Har bir turdagi material uchun belgilangan standartlar va metodikaga rioya qilish, namuna hajmi va sonini hududning o'lchami, heterojenligi va tahlil maqsadiga moslash
		11. Turli nuqtalardan olinadigan namunalarning aralashini tayyorlash va namunaning vakilligini tekshirish, vakillikni hujjatlashtirish va laboratoriya jurnaliga qayd etish
		12. Namuna olinadigan hududning xaritasini yoki rejani tayyorlash, hududdagi tabiiy va antropogen o'zgarishlarni aniqlash masalan, suv oqimi, tuproq turi, o'simlik turlari
		13. Kerakli asboblar va idishlarning steril yoki toza ekanligini tekshirish, namuna olish rejasini tasdiqlash va ishni ketma-ketlik bo'yicha tashkil etish
		14. Tuproqning sirt qatlamidan va chuqur qatlamdan vakillikni ta'minlash uchun alohida namunalar olish, tuproq namunalari orasida ifloslanish yoki aralashuvni oldini olish uchun alohida asboblardan foydalanish
		15. Namuna olingan joylar va chuqurliklarni jurnalga qayd etish, kerak bo'lsa, tuproqni quritish yoki maydalash orqali tahlilga tayyorlash
		16. Suv nuqtalarini hudud bo'yicha tasodifiy yoki belgilangan tartibda tanlash, suvni turli qatlamlardan olish sirt, o'rtacha, past qatlam va aralashtirish
		17. Namuna idishlarini yopiq holda saqlash va yorliq bilan belgilash, agar tahlil tez amalga oshirilmasa, suvni sovutib yoki konservant qo'shib saqlash
		18. Har bir namunaning saqlash harorati va sharoitini standartlarga muvofiq belgilash, namuna kodlash va identifikatsiya qilish orqali aralashuv yoki xatoliklarni oldini olish
		19. Transport davomida namunaning sifatini saqlash uchun maxsus qutilar yoki sovutgichlardan foydalanish, kerak bo'lsa, laboratoriyaga yetkazilganda namunaning holatini qayta tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyini tartibga keltirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, zarur asbob-uskunalar va idishlarni tayyorlash
		Standart metodika va protokollarga rioya qilgan holda ish rejasini tuzish

		Tuproq maydonidan vakillikni ta’minlab namuna olish blok, shox yoki qatlam usuli, tuproq qatlamlarini aralashtirib, umumiy namuna tayyorlash
		Namuna idishlarini toza va yopiq holda saqlash, identifikatsiya qilish, turli qatlamlardan suvni olish va aralashtirish
		Suv manbasining turli nuqtalaridan vakillikni ta’minlab namuna olish, namuna idishlarini yopiq va yorliq bilan belgilash
		Turli yosh, shakl va sifatdagi o‘simlik yoki mahsulot qismlarini tanlash, aralash namuna tayyorlash va identifikatsiya qilish
		Transport va saqlash shartlariga rioya qilish, har bir turdagi namuna uchun standart metodika va hajmga rioya qilish
		Turli nuqtalardan olingan namunalarning aralashini tayyorlash va homojenligini tekshirish, vakillikni laboratoriya jurnalida qayd etish
		Namunaning saqlash harorati va sharoitlariga rioya qilish, idishlarni kodlash, yorliq qo‘yish va transportda shikastlanmasligini ta’minlash
		Shaxsiy himoya vositalarini kiyish va chiqindilarni xavfsiz yo‘q qilish
		Bilimlar:
		Namuna olish-bu tahlil qilinadigan materialdan vakillikni saqlagan holda qism olish jarayoni, vakillik (representativlik) -namuna hudud yoki partiyani to‘liq ifodalashi
		Har bir turdagi material tuproq, suv, o‘simlik, mahsulot uchun vakillikni ta’minlash usullari turlicha bo‘ladi
		Namuna olish faqat tasdiqlangan metodika va standartlar asosida amalga oshiriladi masalan, ISO, GOST yoki milliy standartlar
		Standartlar namuna hajmi, nuqtalar soni, aralash va homogenlash usulini belgilaydi, transport davomida namunaning vakilligini saqlash
		Metodika va standartlarga rioya qilish tahlil natijalarining ishonchliligini kafolatlaydi
		Tuproq: vakillikni ta’minlash uchun qatlamlar bo‘yicha, blok yoki shox usulida namuna olinadi, suv: suv havzasi yoki oqimning turli nuqtalaridan va qatlamlaridan namuna olish tavsiya etiladi
		O‘simlik va mahsulotlar: turli yosh, shakl, sifatdagi qismlardan namuna olish, aralash namuna tayyorlash
		Namuna sifatini saqlash uchun harorat, yorug‘lik va konteyner sharoitlariga rioya qilish, identifikatsiya va kodlash orqali aralashuv yoki xatoliklarning oldini olish
		Vakillikni ta’minlagan namuna tahlil natijasining aniqligi va ishonchliligini oshiradi, aralash va homogenlashtirilgan

		namuna tahlilga tayyorlanadi, natijalar standartlarga solishtiriladi
		Natijalarni jurnal yoki elektron protokolda qayd etish orqali vakillik va sifat hujjatlashtiriladi, namuna olishning nazariy asosini tushunadi
		Standart metodika va qonun-qoidalarga rioya qiladi, tuproq, suv, o‘simlik va mahsulotlardan vakillikni ta’minlaydi
		Namunaning sifatini saqlab, tahlil natijalarini ishonchli oladi
	B1.02.7- Namuna olish vaqtini, joyini va sharoitlarini laboratoriya hujjatlarida qayd etish, Gigiyena va laboratoriya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish	**Mehnat harakatlari:**
		1. Ish joyini tartibga keltirish, zarur asbob-uskunalar va hujjatlarni tayyorlash laboratoriya jurnal, etiketa, marker, shprits, idishlar va h.k.
		2. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish: laboratoriya ko‘ylagi, qo‘lqop, ko‘zoynak, agar kerak bo‘lsa, respirator, namuna olish vaqtini aniq belgilash sana va soat
		3. Laboratoriya xavfsizligi va gigiyena qoidalarini eslab chiqish va ish rejasini tuzish, namuna olinadigan hudud va material turini aniqlash
		4. Namuna olish joyini aniqlash va xarita yoki nuqtalar bo‘yicha belgilash, namuna olish sharoitlarini qayd etish: harorat, yorug‘lik, namlik, suv oqimi yoki tuproq holati kabi shartlar
		5. Namunaning turini va hajmini laboratoriya jurnalida yozish, namuna identifikatsiya qilinishi uchun yorliq va kodlashni bajarish
		6. Namuna olish jarayonida qo‘lqop va himoya vositalarini kiygan holda ishlash, biologik, kimyoviy yoki toksik materiallar bilan ishlashda ehtiyot choralarini qo‘llash
		7. Ishlatilgan asbob va idishlarni tozalash, dezinfeksiya qilish va chiqindilarni xavfsiz yo‘q qilish, hududni tartibga keltirish va ish tugagandan keyin qo‘llanilgan materiallarni xavfsiz saqlash
		8. Laboratoriya jurnalida namuna olish vaqti, joyi va sharoitini aniq yozish, har qanday shubhali holat, og‘ish yoki xatoliklarni qayd etish
		9. Namunaning keyingi tahlilga tayyorligini va identifikatsiya ma’lumotlarini hujjatlashtirish, jurnal yoki elektron protokolni imzolash va rasmiy tasdiqlash
		10. Ish joyini tozalash va dezinfeksiya qilish, asbob-uskunalarni joyiga qo‘yish va tayyorlash
		11. Xavfsizlik va gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda laboratoriya ishini yakunlash
		12. Ish joyini ko‘zdan kechirish, zarur asbob-uskunalarni tayyorlash steril idishlar, markirovka vositalari, jurnal
		13. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish xalat, qo‘lqop, niqob, bosh kiyim, qo‘llarni antiseptik bilan dezinfeksiya qilish

		14. Namuna olish bo‘yicha yo‘riqnoma bilan tanishish, hujjatlarni qayta ko‘zdan kechirish
		15. Markirovka va jurnal ma’lumotlarini solishtirish, namunaning butligini tekshirish, sanitariya qoidalariga rioya etilganligini baholash
		Ko‘nikmalar:
		Zarur hollarda vaqt zonasi yoki smena ma’lumotini ko‘rsatish, namuna olingan va laboratoriyaga yetkazilgan vaqtni alohida qayd etish
		Sana, oy, yil va aniq vaqtni soat, daqiqa yozish, 24 soatlik formatdan foydalanish masalan: 14:35
		Tashkilot yoki obyekt nomini to‘liq yozish, aniq manzil viloyat, tuman, korxona nomi
		Zarur hollarda GPS koordinatalarini qayd etish, namuna olingan muhitni tavsiflash ichimlik suvi, ishlab chiqarish sexi, tuproq, oziq-ovqat ombori va boshqalar
		Atrof-muhit harorati va namligini yozish, namuna turi suv, havo, oziq-ovqat, biologik material va h.k, ishlatilgan asbob-uskunalar va ularning sterillik holati
		Namuna olish usuli standart, tezkor, selektiv va boshqalar, transportirovka sharoiti muzlatilgan, sovutilgan, xona haroratida
		Ish boshlashdan oldin va tugagandan so‘ng qo‘llarni dezinfeksiya qilish, maxsus kiyim xalat, qo‘lqop, niqob, bosh kiyim kiyish
		Himoya vositalarini to‘g‘ri kiyish va yechish tartibini bilish, ovqatlanish, ichimlik iste’mol qilish va telefon ishlatishni laboratoriyada taqiqlash
		Ish joyini ish boshida va oxirida dezinfeksiya qilish, chiqindilarni biologik, kimyoviy va umumiy turlarga ajratish, oqartiruvchi va dezinfeksiyalovchi vositalardan me’yorida foydalanish
		Namunaviy laboratoriya jurnalini to‘ldirish mashqi, namuna olish jarayonini bosqichma-bosqich simulyatsiya qilish
		Gigiyena va xavfsizlik bo‘yicha test va vaziyatli masalalar ishlash, xavfsizlik bo‘yicha ichki yo‘riqnoma bilan tanishish masalan, World Health Organization tavsiyalari asosida
		Bilimlar:
		Namuna olish-bu tekshiruv yoki tahlil uchun obyektning ma’lum qismidan standart talablarga muvofiq material ajratib olish jarayonidir, namuna reprezentativ haqiqiy holatni aks ettiruvchi bo‘lishi zarur
		Vaqt ko‘rsatkichi natijaning ishonchliligiga ta’sir qiladi, biologik va kimyoviy ko‘rsatkichlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin

		Namuna olingan vaqt va laboratoriyaga topshirilgan vaqt o‘rtasidagi interval nazorat qilinadi, hududiy, ekologik va ishlab chiqarish sharoitlari natijaga ta’sir qiladi
		Epidemiologik tekshiruvlarda joy ma’lumoti muhim hisoblanadi, manzilni to‘liq va aniq ko‘rsatish tahlilni qayta tekshirish imkonini beradi
		Atrof-muhit harorati, namlik, bosim kabi omillar, sanitariya holati
		Namuna olish usuli va qo‘llanilgan asboblar, transportirovka va saqlash talablari
		Gigiyena-sog‘liqni saqlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan qoidalar tizimi, laboratoriya gigiyenasi - laboratoriya muhitida xavfsiz va toza sharoitni ta’minlash qoidalari majmui
		Laboratoriya faoliyati sanitariya me’yorlari asosida olib boriladi, xalqaro sog‘liqni saqlash talablari masalan, World Health Organization tavsiyalari
		Laboratoriya sifat tizimi standartlari masalan, International Organization for Standardization tomonidan ishlab chiqilgan ISO talablari
	B1.03.7- Har bir namunaga identifikatsiya raqami, sana va boshqa zarur belgilar berish, Namunalarning saqlanish sharoitlarini nazorat qilish harorat, namlik, yorug‘lik	**Mehnat harakatlari:**
		1. Namuna olishdan oldin markirovka yorliqlari va jurnalni tayyorlash, kodlash tizimi bilan tanishish masalan: obyekt kodi–tartib raqami–sana
		2. Qalam yoki suvga chidamli marker tayyorlash, raqamni namuna idishiga va laboratoriya jurnaliga bir xil ko’rinishda yozish
		3. Har bir namuna uchun yagona takrorlanmaydigan identifikatsiya raqamini shakllantirish, kodni oldindan belgilangan tizim asosida tuzish
		4. Namuna olingan sana va aniq vaqtni 24 soatlik formatda yozish, zarur hollarda namuna qabul qilingan vaqtni alohida qayd etish
		5. Namuna turi suv, oziq-ovqat, biologik material va boshqalar,olingan joy nomi yoki kodi
		6. Sovutgich, muzlatgich yoki maxsus shkafni ishga tayyorlash, termometr va gigrometrning ishlashini tekshirish
		7. Gigrometr yordamida namlik darajasini o‘lchash, haddan tashqari namlik yoki quruqlik aniqlansa, choralar ko‘rish ventilyatsiya, quritgich.
		8. Yorug‘likka sezgir namunalarni qorong‘i yoki maxsus idishda saqlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuridan himoya qilish
		9. Ko‘rsatkichlarni maxsus nazorat jurnaliga yozish, yorug‘lik rejimiga rioya etilishini tekshirish
		10. Saqlash joyida tartib va tozalikni saqlash, biologik va kimyoviy namunalarni alohida saqlash

		11. Xavfsizlik va gigiyena qoidalariga rioya qilish xalqaro tavsiyalar, masalan, World Health Organization yo‘riqnomalari asosida
		12. Saqlash sharoitlarini ichki sifat nazorati tizimi asosida muntazam audit qilish masalan, International Organization for Standardization standartlari talablari asosida
		Ko‘nikmalar:
		Namunalar uchun yagona va takrorlanmaydigan kodlash tizimini qo‘llay olish, kodni to‘g‘ri tuzish obyekt kodi–tartib raqami–sana
		Markirovka jarayonini tez va xatosiz bajarish, identifikatsiya raqamini namuna idishi va jurnalga bir xil ko‘rinishda yozish
		Sana va vaqtni 24 soatlik formatda to‘g‘ri qayd etish, namuna turi, olingan joyi va mas’ul shaxs ma’lumotlarini to‘liq kiritish, xatoliklarni belgilangan tartibda tuzatish
		Yorliq va jurnal ma’lumotlarini o‘zaro solishtira olish, chalkashlik va aralashib ketishning oldini olish, namuna yorlig‘ining o‘chmas va mustahkam joylashtirilganligini tekshirish
		Termometr ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri o‘qish, belgilangan harorat diapazoniga rioya qilish
		Og‘ish aniqlanganda tezkor choralar ko‘rish, Harorat ko‘rsatkichlarini muntazam jurnalga qayd etish
		Gigrometrdan foydalanish, namlik me’yorlarini bilish va baholash, kerakli hollarda ventilyatsiya yoki quritish choralarini qo‘llash
		Yorug‘likka sezgir namunalarni aniqlay olish, qorong‘i yoki maxsus himoyalangan sharoitda saqlashni tashkil qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri ta’sirini oldini olish
		Namunalarni biologik va kimyoviy turlarga ajratib saqlash, saqlash muddatlarini nazorat qilish, muddati o‘tgan namunalarni belgilangan tartibda utilizatsiya qilish
		Ichki sifat nazorat tizimiga rioya qilish masalan, International Organization for Standardization standartlari asosida, Gigiyena va xavfsizlik talablariga amal qilish (masalan, World Health Organization tavsiyalariga muvofiq)
		Bilimlar:
		Identifikatsiya-namunani boshqa namunalardan farqlash imkonini beruvchi yagona belgilar tizimi, har bir namuna takrorlanmaydigan (unikal) raqamga ega bo‘lishi zarur
		Noto‘g‘ri identifikatsiya laboratoriya natijalarining ishonchliligini pasaytiradi, kod obyekt nomi, tartib raqami va sanadan iborat bo‘lishi mumkin
		Kod qisqa, tushunarli va standartlashtirilgan bo‘lishi kerak, kodlash tizimi laboratoriyaning ichki me’yoriy hujjatlari bilan belgilanadi

		Yorliq o‘chmas, aniq va o‘qiladigan bo‘lishi kerak, namuna idishi va laboratoriya jurnalidagi ma’lumotlar bir xil bo‘lishi zarur
		Ma’lumotlarning to‘liqligi va aniqligi laboratoriya sifat tizimining asosidir, xatolarni tuzatish belgilangan tartibda amalga oshiriladi, ma’lumotlar maxfiy va saqlanishi lozim
		Noto‘g‘ri saqlash natijalarni buzishi mumkin, fizik, kimyoviy va biologik jarayonlar harorat va yorug‘lik ta’sirida o‘zgaradi, saqlash sharoitlari namunaning sifatini saqlab qolishga qaratilgan
		Laboratoriya faoliyati sifat va xavfsizlik talablariga asoslanadi, xalqaro sog‘liqni saqlash tavsiyalari masalan, World Health Organization
		Sifat menejmenti va standartlashtirish talablari masalan, International Organization for Standardization tomonidan ishlab chiqilgan standartlar
	B1.04.7- Namunalarning buzilishi yoki aralashib ketishini oldini olish, Saqlash muddatlariga va standartlarga qat’iy rioya qilish Tuproq namunalari ustida pH, gumus miqdori, azot, fosfor va kaliy darajasini aniqlash, Olingan natijalarni laboratoriya jurnali va elektron ma’lumotlar bazasiga kiritish	**Mehnat harakatlari:**
		1. Har bir namuna uchun alohida, zich yopiladigan idish tayyorlash, idishlarni oldindan identifikatsiya kodi bilan markirovkalash
		2. Namunalarni qabul qilishda kod va hujjatlarni solishtirish, har bir namuna bilan ishlaganda alohida qo’lqopdan foydalanish
		3. Ish joyini har bir namuna orasida tozalash, namunalarni aralashtirib yubormaslik uchun ularni alohida joylashtirish
		4. Har bir namuna uchun maksimal saqlash muddatini aniqlash, qabul qilingan sana asosida saqlash muddatini hisoblash
		5. Muddati o‘tgan namunalarni belgilangan tartibda utilizatsiya qilish, saqlash haroratini nazorat qilish va jurnalga qayd etish
		6. Tuproq namunalarini quruq, salqin va to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuridan himoyalangan joyda saqlash, namlikdan himoya qilish uchun yopiq idishlardan foydalanish
		7. Ichki laboratoriya yo‘riqnomalari hamda xalqaro standartlarga amal qilish masalan, International Organization for Standardization talablariga muvofiq
		8. Tuproqni quritish xona haroratida, maydalash va elakdan o’tkazish
		9. O’lchov uchun kerakli miqdorni aniq tortish, pH-metrni kalibrlash
		10. Tuproq–suv aralashmasini tayyorlash, elektrodni aralashmaga tushirib ko‘rsatkichni o‘qish, natijani jurnalga yozish
		11. Reaktivlar yordamida oksidlanish usulini qo‘llash, rang o‘zgarishini kuzatish yoki titrlash, hisob-kitob qilish va foiz miqdorini aniqlash

		12. Identifikatsiya kodini to‘g‘ri kiritish, ko‘rsatkichlarni mos maydonlarga joylashtirish
		13. Ma’lumotlarni saqlashdan oldin tekshirish, zaxira nusxa (backup) yaratish, kimyoviy reaktivlar bilan ishlashda himoya vositalarini kiyish
		14. Ish joyini toza saqlash va chiqindilarni alohida yig’ish, laboratoriya sifat nazorati tizimiga rioya qilish masalan, World Health Organization tavsiyalariga muvofiq, ichki audit va o’z-o’zini tekshirishni muntazam o’tkazish
		15. Har bir ko‘rsatkichni alohida ustunda yozish, sana va identifikatsiya raqamini ko‘rsatish
		16. O‘lchov birligini aniq qayd etish, hisob-kitob natijalarini tekshirib yozish
		Ko‘nikmalar:
		Har bir tuproq namunasini to‘g‘ri markirovka qilish kod, sana, joylashuv, chuqurlik, namunalarga individual identifikatsiya raqami (ID) berish
		Idishlarni germetik yopish va tashish qoidalariga rioya qilish, tuproq namunalarini saqlash harorati va namlik sharoitlarini nazorat qilish
		Namunalarning aralashib ketishini oldini olish uchun alohida saqlash tizimini tashkil etish, ish jarayonida tozalikka kontaminatsiyani oldini olish rioya qilish
		Amaldagi milliy va xalqaro standartlar bilan ishlash masalan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Standartlashtirish Agentligi talablari
		Laboratoriya ichki yo‘riqnomalari va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilish, namunalarni saqlash muddatini monitoring qilish va ro‘yxat yuritish
		pH-metr bilan ishlash va uni kalibrlash, tuproq eritmasini tayyorlash suv yoki KCl eritmasi bilan, natijalarni to‘g‘ri o‘qish va qayd etish
		Oksidlanish (Tyurin) usulini qo‘llash, reaktivlar bilan xavfsiz ishlash, hisob-kitoblarni aniq bajarish
		Laboratoriya jurnalini to‘g‘ri va aniq yuritish, har bir namuna bo‘yicha alohida qayd varag‘ini to‘ldirish, ma’lumotlarni tekshirish (verifikatsiya) va xatolarni aniqlash
		Elektron ma’lumotlar bazasiga ma’lumotlarni kiritish Excel, laboratoriya axborot tizimi, ma’lumotlarni arxivlash va himoyalash
		Olingan natijalarni agronomik me’yorlar bilan taqqoslash, takroriy tahlillar orqali aniqlikni tekshirish
		Xulosa va tavsiyalar berish, ichki sifat nazorati (Quality Control) tamoyillariga amal qilish
		Bilimlar:

		Tuproqning kimyoviy va fizik xususiyatlarini aniqlash, qishloq xo‘jaligi va ekologik monitoring uchun ishonchli ma’lumot olish
		Namuna buzilishi natijalarni noto‘g‘ri qiladi, shu sababli quyidagilar muhim, toza idishlar, namuna olinadigan idishlar kimyoviy reaktsiyaga ta’sir qilmaydigan, toza va quruq bo‘lishi kerak
		Namunaning aralashmasligi har bir namuna alohida belgilangan joydan olinadi va boshqa namunalardan aralashmasligi kerak, olov va quyoshdan himoyalash, namunani issiq, nam yoki quyoshli joylarda saqlamaslik
		Tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini aniqlash, qishloq xo‘jaligi, ekologiya va landshaft monitoringi uchun ishonchli ma’lumot olish
		Tuproq turiga qarab qum, loy, chernozem turli tahlil usullarini tanlash, namuna olishdan oldin maydon xaritasini tayyorlash
		Tahlil qilinmagan namunalarni tezda saqlash, standartlarga ISO yoki milliy standartlar qat’iy rioya qilish
		Namunalarning etiketlarini to‘g‘ri yozish, har bir tahlil uchun nazorat namunalarini ishlatish kalibratsiya va sifat nazorati
		Har bir maydon uchun bir nechta kichik sub-namuna olinadi, keyin ular aralashtiriladi (composite sample), idishlar: shisha, plastik yoki metall idishlar, kimyoviy reaktsiyaga olib kelmasligi kerak, belgilanish: har bir namunaga kod, sana, joy va chuqurlik yoziladi
B2.7 – O‘quv jarayonining tashkil etilishi, dars jadvali, mashg‘ulotlar sifati va pedagogik yuklamalar bajarilishini tekshirish, talabalar davomatini, bilimlarni baholash va reyting tizimining to‘g‘ri qo‘llanilishini	B2.01.7- Tuproq namunalari ustida pH, gumus miqdori, azot, fosfor va kaliy darajasini aniqlash, olingan natijalarni laboratoriya jurnali va elektron ma’lumotlar bazasiga kiritish	**Mehnat harakatlari:**
		1. Laboratoriya ishlarini tartibli va xavfsiz olib boorish, namunalarning buzilish, aralashish yoki kontaminatsiya qilish xavfini kamaytirish
		2. Ish stoli va asbob-uskunalarni tozalash, dezinfeksiya qilish, zarur asboblarni tayyorlash: pH-metr, fotometr, o‘lchov chashkalari, ekstraksiya idishlari, elaklar
		3. Namunalarga identifikatsiya etiketlari tayyorlash, namuna kodi, manzil, chuqurlik, sana, tahlil turi, namuna qattiq qismlaridan tosh, ildiz, katta zarrachalar tozalash
		4. Tuproqni 2 mm elakdan o‘tkazish, quruq holda tayyorlash havo bilan quritish, har bir namuna alohida idishda saqlanishi.
		5. Natijalarni raqamli shaklda kiritish va saqlash, Qidirish va tahlil qilish oson, xatoliklar kamayadi, uzun muddatli monitoring va statistik tahlil uchun zarur
		6. Ishlatilgan asboblarni tozalash va dezinfeksiya qilish, namunalarni tegishli joyda saqlash yoki yo‘q qilish
		7. Elektron ma’lumotlar bazasini zaxiralash, nazorat namunalarini tahlil qilib, natijalarni tekshirish.
		8. Laboratoriya ish joyini tozalash va tartibga solish, ish uchun zarur asbob-uskunalarni tanlash va tayyorlash: pH-

monitoring qilish		metr, fotometr, o‘lchov chashkalari, ekstraksiya idishlari, elaklar, elektron balans
		9. Namunaning qattiq qismlarini tozalash tosh, ildiz, katta zarrachalar, tuproqni 2 mm elakdan o‘tkazish va quruqlashtirish.
		10. Har bir mehnat harakati faqat texnik ish emas, balki tuproqning sifatini, unumdorligini va ekologik holatini tahlil qilish jarayonining bir qismi, qishloq xo‘jaligi amaliyoti rejalashtiriladi urug‘lantirish, o‘simlik tanlovi
		11. Tuproqni barqaror va unumdor saqlash strategiyasi ishlab chiqiladi, ilmiy tadqiqot va monitoring uchun ishonchli ma’lumotlar hosil bo‘ladi
		Ko‘nikmalar:
		Namunalarga to‘g‘ri identifikatsiya etiketlarini tayyorlash: kod, manzil, chuqurlik, sana, namunaning aralashmasligini ta’minlash va alohida idishda saqlash
		Ishlatilgan asbob-uskunalarni tozalash va dezinfeksiya qilish, natijalarni tekshirish va sifat nazoratini amalga oshirish, namunalarni saqlash yoki yo‘q qilish
		Olingan natijalarni tahlil qilish, interpretatsiya qilish va xulosa chiqarish, tuproq unumdorligini baholash va o‘simliklar uchun ozuqa rejasini tuzish
		Ilmiy monitoring va ekologik baholash uchun ma’lumotlarni ishlatish, laboratoriyada xavfsiz va tartibli ishlay olasiz
		Tuproq namunalari bilan to‘g‘ri ishlay olasiz, kimyoviy tahlillarni to‘liq va ishonchli amalga oshirishingiz mumkin
		Natijalarni tizimli qayd etishingiz va tahlil qilishingiz mumkin, ishlatilgan asbob-uskunalarni tozalash va dezinfeksiya qilish
		Natijalarni tekshirish va sifat nazoratini amalga oshirish, namunalarni saqlash yoki yo‘q qilish, nazorat namunalarini tahlil qilish
		Ish jarayonida yuzaga kelgan xatoliklarni aniqlash va tuzatish, olingan natijalarni tahlil qilish, interpretatsiya qilish va xulosa chiqarish
		Tuproq unumdorligi va o‘simliklar uchun ozuqa rejalarini tuzish, monitoring va ekologik baholash uchun ma’lumotlardan foydalanish
		Ilmiy xulosalarni grafik va jadval shaklida ifodalash, natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish, qaror qabul qilish uchun statistik va ekologik jihatdan asoslash
		Bilimlar:
		Namunalarga identifikatsiya etiketlarini tayyorlash: kod, manzil, chuqurlik, sana, tahlil turi, xavfsizlik qoidalari, ish rejalashtirish, vaqtni samarali boshqarish, laboratoriyada xavfsiz va samarali ish muhiti yaratish

		Laboratoriya stolini tozalash va dezinfeksiya qilish, ish uchun zarur asbob-uskunalarni tayyorlash: pH-metr, fotometr, ekstraksiya idishlari, elaklar, elektron balans, pipetlar
		Qattiq qismlardan tozalash tosh, ildiz, katta zarrachalar, namunaning aralashmasligini ta’minlash va alohida idishda saqlash
		Ma’lumotlarni tekshirish va xatoliklarni aniqlash, statistik tahlil va qidiruv imkoniyatlarini yaratish
		Ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va zaxiralash, natijalarni tizimli, xavfsiz va qulay tarzda boshqarish
		Bilimlar: asbob-uskunalarni tozalash, namunalarni saqlash yoki yo‘q qilish, qo‘shimchalar: nazorat namunalarini tahlil qilish, ish jarayonidagi xatoliklarni aniqlash va tuzatish
		Natija: laboratoriya ishlarining yuqori sifatini ta’minlash va ishonchli natija olish, grafik, jadval va diagramma yordamida natijalarni vizual ifodalash
		Natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish, qaror qabul qilish uchun statistik va ekologik asoslash
		Laboratoriyada xavfsiz va samarali ishlashni, tuproq unumdorligini baholash va o‘simliklar uchun ozuqa rejasini tuzish, ilmiy monitoringni amalga oshirish.
		Tuproq namunalari bilan to‘liq va sifatli ishlashni, kimyoviy tahlillarni ilmiy va ishonchli bajarishni
		Natijalarni tizimli va raqamli tarzda boshqarishni, tahlil asosida ilmiy va amaliy xulosalar chiqarishni o‘rganasiz
	B2.02.7- O‘simlik namunalarini tayyorlash va oziqlanish elementlarini azot, fosfor, kaliy va boshqa mikroelementlar tahlil qilish,Natijalarni standart shakl va	**Mehnat harakatlari:**
		1. Laboratoriya ish joyini tozalash va tartibga solish, Ish uchun zarur asbob-uskunalarni tayyorlash: blender/mikser, ekstraksiya idishlari, o’lchov chashkalari, pH-metr, fotometr, spektrofotometr, pipetlar
		2. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish: qo’lqop, ko’zoynak, lab mantiyasi, o‘simlik namunalarini identifikatsiya qilish: namuna kodi, olingan joyi, turi, sana
		3. Olingan o’simliklarni tozalash: chang, tuproq, qurigan barg yoki begona materiallarni olib tashlash, namunaning kerakli qismlarini ajratish: barg, ildiz, poyasi, meva va h.k., tahlil turiga qarab
